


Qoyadagi Petra shahri



Iordaniya deganda, ko‘z oldimizga dastlab tropik iqlim sharoiti ustun bo‘lgan Arabiston yarimorolining cho‘l va chala cho‘llardan iborat quruq hududlari keladi. Ammo mazkur cho‘llar uzra yastanib yotgan voha va vodiylarda yaratilgan shaharlar kishi aqlini lol qoldiradi. Ana shunday maskanlardan biri — Iordaniyaning qadimiy shaharlaridan biri Petradir. Petra shahri avval Edom, keyinchalik Nabateylar podshohligining poytaxti bo‘lgan. Hozirgi vaqtda Iordaniyaning Arava daryosi vodiysida, dengiz sathidan 900 metr, atrof hududlardan esa 660 metr balandda joylashgan. Shaharning nomi joylashgan hudud xususiyatiga bog‘liq bo‘lib, «Petra» so‘zi «qoya» ma‘nosini bildiradi. Shahar joylashgan vodiya shimol va janub tomonga qarab yo‘nalgan tor dara orqali kirish mumkin. Sharq va g‘arb tomondagi qoyalar tikka tushgan jarliklarni hosil qilib, tabiiy devorlarning balandligi 60 metrdan oshadi.



Petra shahriga kiriladigan dara.

Petra shahrining gullab-yashnashi uchun ikki muhim qadimiy savdo yollari kesishgan geografik o‘rni qulay sharoit yaratgan. Mazkur yo‘llardan biri Qizil dengizni Damashq bilan bog‘lagan bo‘lsa, ikkinchisi Fors qo‘ltig‘ini O‘rta dengiz bo‘yidagi G‘azo bilan bog‘lagan. Turli yuk ortilgan savdo karvonlari Fors qo‘ltig‘idan jo‘nagach, Arabiston cho‘lining issiq iqlim sharoitida uzoq yo‘l bosib, Petra shahriga yetib olishi uchun bir necha hafta kerak bo‘lgan. Bu shaharda savdogar va sayyohlar safarni davom etti-rish uchun yetarli oziq-ovqat va suv g‘amlab olishgan.

Bir necha yuz yil davomida Sharq va G‘arbning turli mamlakatlari o‘rtasidagi savdo aloqalari Petruga mislsiz boylik olib kelgan. Ammo rimliklar tomonidan Sharq mamlakatlariga boradigan dengiz yo‘lining kashf etilishi natijasida Petra shahri orqali quruqlikda amalga oshirilgan savdo hajmi asta-sekin kamayib, shahar tanazzulga uchray boshlagan. Bu yerdagi aholi boshqa yerlarga ko‘chib ketib, shahar butunlay bo‘shab qolgan.

Petra shahridagi obidalar turli davrlarda, jumladan, idumeylar (miloddan avvalgi XVIII-II asrlar), naboteylar (miloddan avvalgi II asr va milodiy 106 yil), rimliklar

(milodiy 106-395 yillar), vizantiyaliklar va arablar tomonidan barpo etilgan. Shahar ahli quruq cho'l iqlimi sharoitida suv yig'ishning o'ziga xos uslubini o'ylab topishgan. Sopol quvurlar yordamida petralik me'morlar shaharni suv bilan ta'minlashning murakkab tizimini yaratishgan. Shu bois, issiq tropik iqlim sharoitida aholi hech qachon suvga muhtoj bo'lmagan. Butun shahar bo'ylab 200 dan ortiq yomg'ir suvini yig'adigan va saqlaydigan inshootlar — tosh hovuzlar, sardobalar barpo etilgan. Bu inshootlar sopol quvurlar orqali atrofda radiusi 25 km bo'lgan maydonda mavjud barcha manbalarning suvini yig'ish imkoniyatini bergan. Petra shahrida yiliga atigi 150 mm. gacha yog'in yoqqani bois, aholi akveduklar barpo etgan, ya'ni suvni yig'ish va saqlash uchun qoyalarda turli ariq va idishlarni o'yib ishlashgan.


Cho'l sharoitida suv yig'ishni o'rganishgach, petraliklar toshga ishlov berish san'atini o'zlashtirishgan. Shu bois, Petra toshdan qurilgan shahar bo'lib, bunaqasi o'sha paytlarda dunyoda boshqa bo'lmagan. Petraliklar shaharni qura turib, yirik tosh bo'laklaridan asta-sekin uy-joy, omborxonalar va ibodatxonalarni barpo etishgan. Shaharning qizil qumtosh konlari orasida joylashgani ushbu xomashyodan qurilishda keng foydalanish imkonini bergan. Shu tariqa milodiy I asrda Arabiston cho'lining qoq o'rtasida me'moriy jihatdan o'ziga xos shahar paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, eng gullagan vaqtlarida, ya'ni milodning boshlarida Petrada 20 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan.



Petra shahri.

Hozirgi vaqtda Petra shahri qoyalarga o'yib ishlangan ibodatxonalar, maqbaralar, turarjoy binolari, uch ming kishilik amfi-teatr va boshqa obidalarning betakror majmuasidan iborat. Tosh shaharning umumiy maydoni 3 kv.km bo'lib, bu yerda 1000 dan ortiq o'yma inshootlar mavjud. Mazkur inshootlarning barchasi shahar o'z ahamiyatini yo'qotgan vaqtdan oldin, ya'ni VI asrgacha bunyod etilgan.

Arava daryosi hosil qilgan uzunligi bir kilometrdan ortiq, havosi atrofga nisbatan birmuncha salqin daradan o'tgach, ko'z ol-dingizda «Al-Xazina» — old tomoni xog'ning ulkan qoyasiga o'yib ishlangan mahobatli ibodatxona namyoyon bo'ladi. Mazkur obida I asrda yaratilgan va hozirgi kungacha nisbatan yaxshi saqlanib kelgan inshootlardan biridir. Binoda toshdan o'yib ishlangan ulkan idish bo'lib, afsonalarga ko'ra, go'yoki mazkur idishda oltin va qimmatbaho toshlar saqlangan. Shu bois, mutaxassislar inshootning «Al-Xazina» deb nomlanishi ham shundan, deb taxmin qilishadi.



Qoyalarda yaratilgan obidalar.

«Al-Xazina» ibodatxonasi Arava daryosining oldingi oʻzani oʻrnida barpo etilgan. Ushbu inshootni qurish uchun daryo oʻzanini oʻzgartirish maqsadida togʻni teshib, suv yoʻnalishi boshqa yoqqa burilgan. Shuningdek, daryoda bir nechta katta-kichik toʻgʻonlar barpo etilgan. Bu oʻsha davr nuqtai nazaridan juda katta va ilgʻor loyiha edi. Shuningdek, mazkur ibodatxona — qadimgi meʼmor va toshtaroshlar yuksak mahoratining namunasi. Jumladan, qoyaning yuzasi tarashlab chiqilgan. Ammo buning uchun yogʻochdan yasalgan maxsus moslamalarning ustida ishlash lozim boʻlgan. Shu bois, binoning old tomonidagi togʻ qoyasiga qanday qilib ishlov berilgani, shakllar oʻyilgani hamda bu ishning qanday hisob-kitob asosida amalga oshirilgani haqida zamonaviy fanda hanuzgacha javob yoʻq.

Soʻng dara asta-sekin kengayib, qizil qumtoshli devorlarida gʻorlar mavjud boʻlgan tabiiy amfiteatr namoyon boʻladi. Bu yerdagi tosh ustunlar va amfiteatr mazkur inshootning rimliklar tomonidan barpo etilganidan dalolat beradi.

Shahardagi ulkan binolardan yana biri qoyada kesib ishlangan Ad-Dayr ibodatgohi hisoblanadi. Uning kengligi — 50 metr, balandligi — 45 metrni tashkil etadi. Devorlariga oʻyilgan xochlarga koʻra, uni qachonlardir nasroniylarning cherkovi boʻlgan, deb aytish mumkin.

Petrani 1812 yilda shveysariyalik tadqiqotchi Iogann Lyudvig Burkhardt topmaganida, mazkur shahar qumlar orasida koʻmilib ketar edi. Yoʻqolgan shaharni izlash maqsadida shveysariyalik sayyoh Damashqdan Qohiraga savdo karvoni bilan yoʻlga chiqqan. 1812 yilning avgustida sayyoh Petra shahri joylashgan yerdan uncha uzoq boʻlmagan yerga yetib keldi. Burkhardt arab tilida bemalol gaplashgan, arab koʻchmanchilaridek kiyingan va oʻzini hammaga musulmon — Ibrohim ibn Abdalloh deb tanishtirgan.

Shu bois, mahalliy arablardan hech ikkilanmay Muso paygʻambarning ukasi Aron paygʻambarning yaqin oʻrtadagi togʻ tepasida joylashgan qabriga olib borishni iltimos qilgan. Mahalliy badaviy sayyohni Arava daryosining vodiysiga olib boradi. Uncha keng boʻlmagan Arava daryosi vodiysiga olib boruvchi daraga kiringach, shveysariyalik sayyoh koʻz oldida qumlar orasida qolgan va xarobalarga aylana boshlagan Petra shahri namoyon boʻladi. Burkhardt keyingi 600 yil mobaynida dunyoning ushbu moʻjizasini koʻrgan ilk yevropalik edi.



Ad-Dayr ibodatxonasi va tosh sardoba.



Toshda o'yib barpo etilgan amfiteatr.

Shahar yirik qoyatoshlardan barpo etilgani bois, ba'zi tadqiqotchilar Petraning bunyod etilishida ulkan ehromlarni qurgan misrliklarning qo'li bor, degan fikrni oldinga suradilar. Ammo, Petrada olib borilgan tadqiqotlar shaharning qurilishiga misrliklarning aloqasi yo'qligini ko'rsatdi. Ushbu shaharni qadimgi misrliklarga o'xshash me'morchilikning yuksak cho'qqilarini egallagan boshqa xalq — nabataylar bunyod etishgan.

Hozirgi kunda Petra shahriga yiliga 500 mingdan ortiq sayyoh tashrif buyuradi. Shaharning jozibali landshafti, sirli qoyalar kino industriyasi ustalari e'tiborini o'ziga doim jalb etadi. Ko'pgina filmlar Petra shahrida suratga olingan.